In the world, special attention is being paid to fully satisfying the needs of the population for electricity supply, attracting investments to the production of renewable energy sources and improving accounting for its use. According to the analyzes of the “Enerdata” agency, “in 2021, compared to 2020, the volume of investments in the electricity system increased by 27%, investments in renewable energy sources amounted to 755 billion US dollars.” In order to achieve the correct accounting of investments made in the field in the enterprises of the electric energy network, the enterprises under the influence require the management of economic transactions in the subsidiaries.

In the world, special attention is being paid to scientific research aimed at dramatically expanding the attraction of investments in the energy sector, coordinating investment accounting based on international standards of financial accounting, improving the presentation of consolidated financial reports and increasing its effectiveness. In the electric power system, scientific research is being carried out in areas such as the evaluation of the structural structure of the accounting policy of joint-stock companies based on market principles, the analysis of the consolidated financial report through the descriptive models of the international standards of financial reporting.

In Uzbekistan, expansion of investments in the electricity system, continuous supply of electricity to the population is considered as a priority. “On the basis of public-private partnership, to attract investments equal to 14 billion US dollars in energy, communal services, water management and other sectors, to continuously provide the economy with electricity and to increase the energy efficiency of the economy by 20%, by 2026, the indicator of electricity production will be increased by 30 the task of increasing it to a billion kWh and bringing it to 100 billion kWh” In the implementation of these tasks, improving the investment environment, substantiating proposals and recommendations aimed at improving investment accounting, and preparing consolidated financial

statements based on international standards of financial reporting are among the current issues.

A total of 15 billion annually in the world. t. Conventional fuels are used as energy resources. In the early 90s of the last century, the total capacity of power plants around the world was 2.5 billion. kW, and the production of electricity is 12 trillion per year. increased to kW/s. In the last decade alone, the world's electricity production has increased by almost 1.5 times. Significant changes have occurred mainly in relation to the types of fuel used, as well as in the geographical structure of the global energy market. More than 3/5 of all electricity is contributed by industrialized countries, mainly the USA, CIS (Russia), Japan, Germany, Canada, and China, which stand out in this field.

**Keywords:** *Consolidation, Preparation, Presentation, International Standards Of Financial Reporting, Group, Business Merger, Energy Resources.*

## ANNOTATSIYA

Jahonda iqtisodiyot tarmoq va sohalari hamda aholining elektr energiyasi ta'minotiga ehtiyojini to'liq qondirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarishga investitsiyalar jalb etilishi va undan foydalanish hisobini yuritishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Enerdata» agentligi tahlillariga ko'ra, «2021 yilda 2020 yilga nisbatan elektr energiyasi tizimiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 27 foizga oshdi, qayta tiklanuvchi elektr energiyasi manbalariga kiritilgan investitsiyalar 755 milliard AQSh dollarini tashkil etdi». Elektr energetikasi tarmog'i korxonalarida sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hisobini to'g'ri yuritishga erishishda ta'sir ostidagi korxonalar, sho'ba korxonalarida xo'jalik muomalalarini yuritishni talab etmoqda.

Jahonda energetika sohasiga investitsiyalarni jalb etishni keskin kengaytirish, investitsiyalar hisobini moliyaviy hisobning xalqaro standartlari asosida muvofiqlashtirish, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishni takomillashtirish va uning samadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Elektr energetikasi tizimida aktyadorlik jamiyatlari hisob siyosatining tarkibiy tuzilishini bozor tamoyillari asosida baholash, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari deskriptiv modellar orqali tahlil qilish singari yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda elektr energiyasi tizimiga investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish, aholining elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash masalalariga ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. «Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish, iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish, 2026 yilga kelib, elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish» vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda investitsiya muhitini yaxshilash, investitsiyalar hisobini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni asoslash, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlash hozirgi kunning dolzarb masalaridan biridir.

Jahonda har yili jami 15 mlrd. t. shartli yoqilg'i energiya resurslari sifatida ishlatiladi. O'tgan asrning 90-yillari boshlarida butun dunyodagi elektr stantsiyalarining jamlanma quvvati 2,5 mlrd. kVt dan ortiq bo'lgan, elektr energiyasini ishlab chiqarish esa yiliga 12 trln. kVt/s da-

rajasiga ko'tarilgan. So'nggi o'n yillikning o'zida dunyo bo'yicha elektr energiyasini ishlab chiqarish deyarli 1,5 baravarga o'sgan. Sezilarli o'zgarishlar, asosan, ishlatilayotgan yoqilg'i turlariga nisbatan, shuningdek, global energetika bozorining geografik tuzilishida yuz bergan. Barcha elektr energiyasining 3/5 qismidan ortig'i sanoati rivojlangan mamlakatlar, asosan, bu sohada alohida ajralib turuvchi AQSh, MDH (Rossiya), Yaponiya, Germaniya, Kanada, Xitoy davlatlari hissasiga to'g'ri keladi.

***Kalit So'zlar:*** *Konsolidatsiya, Tayyorlash, Taqdim Etish, Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari, Guruh, Biznesning Birlashishi, Energiya Resurslari.*

## THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON LABOR PRODUCTIVITY IN THE EDUCATION SYSTEM

**Bekmurod ELMONOV**

National University of Uzbekistan

### ABSTRACT

Today, in the educational system, the impact of artificial intelligence on the productivity of students, professors and management staff is becoming increasingly relevant. Based on this, the article compares the stages of the industrial revolution, their characteristics, and the differences in qualification requirements for the workforce. Indicators of the impact of digital technology and the fourth industrial revolution on the labor market are grouped. In the fourth industrial revolution, the automation of many activities is based on the need to separate labor productivity from total productivity, which can increase wealth, income and employment from labor. Four stages of the artificial intelligence wave, i.e. internet artificial intelligence, business artificial intelligence, data reliability-based artificial intelligence and autonomous artificial intelligence, have been explored.

The abilities that students should acquire during the educational process - the basic knowledge necessary for students' daily practice, the skills necessary for solving complex tasks, the qualities of exposure to external influences - are grouped, and the use of artificial intelligence technology in their formation shows the need for an intellectual education system, agent technology, digital data formation technology. was found to cause. Statistical analysis of the distribution of students in Uzbekistan by fields of education, including the humanitarian field, social field, economy and law, production and technical field, agriculture and water management, health care and social security, service field, the increase in the number of specialists who graduated from higher education institutions in the fields of education done. In 2015-2022, the relationship between the change in the number of graduates per teacher and the change in the unemployment rate in the higher education system of Uzbekistan was analyzed based on the regression model. The advantages of using artificial intelligence technology in increasing the labor productivity of teachers in higher education organizations are highlighted. Requirements for increasing the employability of graduates of higher education, that is, taking into account various factors that lead people to

be considered more or less employable than others, are defined.

At the same time, it has been analyzed that the introduction of artificial intelligence technologies into the labor activity will lead to the release of employees from certain tasks, fill the employee's work and change their tasks and require them to change or increase their qualifications in order to adapt to it. As a result of the introduction of artificial intelligence technologies, workers are required to adapt to changes in tasks, the emergence of new ones, as well as to solve the issues of job loss or transition to a new job.

**Keywords:** Artificial Intelligence, Education System, Uzbekistan

## ISSUES OF STRATEGIC MANAGEMENT OF MINING ENTERPRISES IN COMPETITIVE CONDITIONS

**Sitorabonu Nazarova**  
National University of Uzbekistan

### ANNOTATION

In conditions of liberalization of the economy and the observance of free market mechanisms, competition among enterprises is formed. In such conditions, enterprises will have to determine their goals and objectives for the medium and long term. For this, strategic planning and the formation of the development of the enterprise are becoming an urgent issue. The enterprise will have to anticipate that it will face certain obstacles and risks in its activities and take preventive measures in relation to this. This also scolds strategic planning and development. In the context of market relations when determining the activities of an enterprise in the coming period, a state of abstraction is most common in planning. In order to clarify such abstraction, it will be necessary to specify several scenarian options for the development of the enterprise. (pessimism, optimism, inertial options) for this reason, the adaptation of the strategic management system in enterprises in market demands is one of the important tasks of today.

**Keywords:** *Strategy, Management, Planning, Enterprise, Competition, Market, Marketing, Management, Strategic Management*



## ANNOTASIYA

Iqtisodiyotni liberallashtirish va erkin bozor mexanizmlarini amal qilish sharoitlarda korxonalar o'rtasida raqobat shakllanib boradi. Bunday sharoitda korxonalar o'zining o'rta va uzoq muddatga belgilangan maqsad va vazifalarini belgilab olish kerak bo'ladi. Buning uchun strategik taxlil o'tkazish va korxonaning rivojlanishini shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Korxonaning o'z faoliyatida ma'lum bir to'siqlar va xav-xatarga duch kelishini oldindan bilishi va shunga nisbatan preventiv choralar ko'rib borishi kerak bo'ladi. Bu ham strategik rejalash va ishlab chiqishni ta'lab etadi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonaning kelgusi davrdagi faoliyatini belgilashda, rejalashtirishda mavxumlik holati ko'p uchraydi. Bunday mavxumlikni oydinlashtirish maqsadida korxonaning rivojlanishini bir qancha stenariyalik variantlarini belgilash lozim bo'ladi. (pessimistik, optimistik, inersion variantlar) Shu sababli korxonalarda strategik boshqaruv tizimini bozor talablarida moslashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

***Kalit So'zlar:*** *Strategiya, Boshqaruv, Rejalashtirish, Korxonaning, Raqobat, Bozor, Olmaliq, Menejment, Strategik Menejment*

## POSSIBILITIES OF ACHIEVING ECONOMIC STABILITY THROUGH PUBLIC PLACEMENT OF SHARES

**Akmaljon Anvarjonovich Mamatov**

Head of the Human Resources Department, Joint-stock Commercial  
Bank "Agrobank"

### ANNOTATION

This article analyzes the scientific views of domestic and foreign scientists on the subject, as well as the possibilities of attracting cheap capital through the effective organization of public placement of shares. The issues that should be paid attention to in order to achieve the intended goal in organizing and conducting a democratic IPO, i.e., in increasing the income by turning the population into shareholders, in the effective passage of privatization in attracting cheap capital of business, in financing the economy, the development of the stock market as a competitive institution to the credit market, were shown. Also, scientific conclusions and practical suggestions are given on ways to attract capital by selling a package of shares owned by the State to private investors, and ways for the general public to invest their savings in shares.

**Keywords:** *Shares, Public Offering Of Shares, Capital Raising, State-Owned Enterprises, Privatization Of State Assets, Stock Market.*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning mavzuga doir ilmiy qarashlari shuningdek, aksiyalarni ommaviy joylashtirishni samarali tashkil etish orqali arzon kapital jalb qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xalqchil IPO tashkil etish va o'tkazishda ko'zlangan maqsadga erishishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar, ya'ni aholini aksiyadorga aylantirish orqali daromadlarini oshirishda, biznesning arzon kapital jalb qilishida xususiylashtirishning samarali kechishida, iqtisodiyotni moliyalashtirishda kredit bozoriga raqobatchi institut sifatida fond bozori rivojlanishi ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, Davlat tasarrufidagi aksiyalar paketini xususiy investorlarga sotish orqali kapital jalb qilish, keng jamoatchilik uchun o'z jamg'armalarini aksiyalarga investitsiya qilish yo'l-lari to'g'risida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar keltirilgan.

***Tayanch So'z Va Iboralar:*** *Aksiya, Aksiyalarni Ommaviy Joylashtirish Amaliyoti, Kapital Jalb Qilish, Davlat Ishtirokidagi Korxonalar, Davlat Aktivlarini Xususiylashtirish, Fond Bozori.*

## THE REAL FACTOR IN SOLVING PROBLEMS OF DEVELOPMENT SMALL BUSINESS IN UZBEKISTAN.

**A. Mutalov**

Alfraganus University,

**D. Mutalova**

TSUE

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik biznes tushunchasi, uning afzalliklari, davlat byudjetini shakllantirishdagi roli, uning yangi Soliq Konsepsiyasi joriy qilingandan keyin kichik biznes rivojlanish o'rniga orqaga ketib qoldi va byudjet daromadlaridagi ulushi 2018 yildagi 56,2 dan 2020 yilda 52,6 foizgacha pasayib ketdi. Soliqlar iqtisodiyot rivojlanishini cheklashi emas, balki rag'batlantirishi lozimligini etiborga olib, shu muammoni yechishdagi cheklashlarni olib tashlash lozimligi asoslab berilgan.

**Kalit So'zlar:** *Kichik Biznes, Kriteriy, Soliq, Soliqqa Tortish, To'sqinlik Qilish, Byudjet Daromadlari, Takomillashtirish*

### ABSTRACT

In this article the concept of small business, its advantages, role in the formation of the state budget, after implementation of new tax concept, the small business developing went down instead of increasing and its share budget revenues decreased from 56,2 % in 2018 till 52,6 % in 2020. It is necessary to remove restrictions on the solution of this problem, taking into account the taxes should not limit the development of the economy but it should stimulate the process.

**Keywords:** *Small Business, Criterion, Tax, Taxation, To Avoid, Budget Revenues, Improvement*

**CURRENT CHANGES IN THE FIELD OF TOURISM AND MODERN  
TRANSPORTATION FEATURES THAT HAVE A POSITIVE EFFECT  
ON TOURIST MOTIVATION: CASE STUDY OF INTERNATIONAL  
TOURISTS WHO ARE TRAVELLING TO TASHKENT, UZBEKISTAN**

**Muhammadismoil MAXMUDOV**

Alfraganus University

Lecturer of International tourism management department

**Dostonbek TILOVMURODOV**

Alfraganus University

**ABSTRACT**

People were packing their bags and travelling to domestic as well as foreign destinations in the face of a changing global economic landscape, which contributes to global economic development. This was the travel story a few years ago; the face of tourism was drastically altered by the COVID-19 pandemic. Specifically, the tourism industry took one of the largest hits that affecting to the local economy, people's livelihoods, public and private services, transportation and variety of other opportunities. This resulted in the end of group travel and the option for tourists to travel solely based on their internal also external motivation. Furthermore, tourism sector experts began developing special interest tourism products (SITp) and experimenting with new modes of transportation. With that considered, the travel market expanding its losses and some of the most significant changes that the tourist sector encountering, contribute to Uzbekistan economy. In today's world, the individual choice of tour, alternative routes and means of transportation in an emerging country is more important. This imposes an extra anxiety on contemporary transportation features and public transit, which must be considered while assessing the capacity of the host country's transportation infrastructure. Understanding tourist behavior requires an understanding of tourism motive. Push and pull variables have offered a straight-forward framework for understanding tourist motivation in a variety of scenarios. Nonetheless, many of the push-pull framework's claims have seldom been tested qualitatively. One of them postulates that pull variables respond to and strengthen push factors. Aim of this case study is to explore Post COVID- 19 pandemic changes in tourism industry and modern features of transportation that have positive effect on tourist

motivation who are traveling to Uzbekistan. The study used a qualitative research approach to gather information from 20 foreign visitors who visited to Tashkent, Uzbekistan.

**Keywords:** *Changes In Tourism, Tourism Industry, Transportation Features In Tourism, Tourist Motivation, International Tourist, Travelling*

## ANNOTATSIYA

Global iqtisodiy yaxshilanish sharoitida mahalliy va xorijiy yo'nalishlarga sayohat qilish global iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shayotgan edi. Bu bir necha yil oldin turizm industriyasidagi rivojlanish holati tadqiq qilingan; ammo turizmning qiyofasi COVID-19 pandemiyasi tomonidan keskin o'zgartirildi, xususan turizm sanoati mahalliy iqtisodiyotga, odamlarning turmush tarziga, davlat va xususiy xizmatlarga, transportga va boshqa ko'plab jamiyat imkoniyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatgan eng katta zararlardan biri bo'ldi. Bu guruh sayohatining tugashiga olib keldi shuningdek sayyohlar uchun faqat ichki va tashqi motivatsiya asosida yakka tartibda sayohat qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Bundan tashqari, turizm sohasi mutaxassislari turizm mahsus turlarining mahsulotlarini (TMTm) ishlab chiqishni va yangi transport turlarini sinab ko'rishni boshladilar. Shu orqali, sayyohlik bozori o'z yo'qotishlarini sezilarli darajada kamaytirishga olib keldi va turizm sektorida O'zbekiston iqtisodiyotiga hissa qo'shayotgan eng muhim o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Hozirgi dunyoda rivojlanayotgan mamlakatlarda tur, muqobil yo'nalishlar va transport vositalarini individual tanlash o'sib bormoqda. Bu zamonaviy transport xususiyatlari va jamoat tranzitiga qo'shimcha qoshimcha imkoniyatlar kelitirib chiqarishiga olib kelmoqda, bu esa turistlarni qabul qiluvchi mamlakatning transport infratuzilmasi imkoniyatlarini baholashda hisobga olinishi kerak bo'lgan omillardan biri bo'lib. Turistik xulq-atvorni tushunish turizm motivini tushunishni orqali olib boriladi. Turtki va tortish motive faktorlari turli senariylarda turistik motivatsiyani tushunish uchun oddiy asosni taklif qilib turtki-tortish motive faktorlari turizm kamdan-kam hollarda sifat parameter taqiqi tarzda sinovdan o'tgan. Ushbu keys tadqiqotining maqsadi turizm industriyasidagi COVID-19 pandemiyasidan keyingi o'zgarishlarni va O'zbekistonga sayohat qilayotgan turistlarning motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi transportning zamonaviy xususiyatlarini o'rganish va tadqiqotda O'zbekistonning Toshkent shahriga tashrif buyurgan 20 nafar xorijiy turistlarning intervyusidan ma'lumot to'plash uchun sifat parametrlarini o'rganish tadqiqot usulidan foydalanildi.

**Kalit So'Zlar:** *Turizm* *dagi O'Zgarishlar, Turizm Sanoati, Turizm* *da* *Transport Xususiyatlari, Turist Motivatsiyasi, Xalqaro Turist, Sayohat*

## RESPONSIBLE TOURISM AS A FACTOR OF TOURISM DEVELOPMENT

**Sayfutdinov Shukhratjon Sultanovich**

Alfraganus University non-governmental higher education organization

### ABSTRACT

Currently, significant changes in the tourist business are taking place, and new forms of tourism are emerging. Tourism has several beneficial and bad effects on society and areas. Responsible tourism is one of the new tourist development paths that has been presented as a strategy to maximize the beneficial impacts of tourism while minimizing the negative consequences. The essential components and concepts of responsible tourism are examined in this article. It should be mentioned that a new approach to tourism aims to preserve the environment, human habitats, tourist sites, and historical monuments, as well as to give tourism features of sustainability and durability. It is stressed in responsible tourism that travelers, tourism enterprises, hotels, the state, local inhabitants, and other tourism-related parties are accountable for the growth of the tourism sector. Tourist's contributions to responsible tourism have a specific place in the literature, nevertheless they are typically viewed as part of the issue rather than part of the solution. This essay also addresses visitor behavior and seeks to explain what determines or limits appropriate recreation activity. The paper also examines effective communication and visitor behavior research. The author provides broad definitions of responsible tourism and responsible visitors in the article. Researchers have identified several tourist behaviors throughout their journey, including values and attitudes; ethics and motivation; marketing; visitor management; information and communication. In general, responsible tourism seeks to increase the good influence of tourism on host communities by fostering mutually advantageous social conditions, avoiding environmental harm, and caring for and supporting people and their cultures. These criteria are guidelines that can be followed throughout the formation stage of a tourism-related organizations.

**Keywords:** *Responsible Tourism, Development Of Tourism, Tourism Sector, Essential Touristic Components, Tourism Related Parties, Tourist Behavior*



## ANNOTATSİYA

Bugungi kunda turizm sohasini rivojlantirishda yangi o'zgarishlar amalga oshmoqda va turizmning yangi turlari shakllanib bormoqda. Turizmning jamiyatga va hududlarga ijobiy va salbiy ta'siri juda ko'p va xilma-xildir. Turizmni rivojlantirishning yangi yo'nalishlaridan biri mas'uliyatli turizm bo'lib, turizmning ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirish va salbiy ta'sirlarni minimallashtirish usullaridan biri sifatida taklif qilingan.

Ushbu maqolada mas'uliyatli turizmning asosiy jihatlari va tamoyillari ko'rib chiqiladi. Qayd etilishicha, turizmga yangicha yondashuv atrof-muhitni, odamlarning yashash joylarini, sayyohlik obektlari va tarixiy obidalarni asrab-avaylashga, shuningdek, turizmga barqarorlik va uzoq umr ko'rish elementlarini berishga qaratilgan. Mas'uliyatli turizm da turizm sohasini rivojlantirishda sayyohlar, turistik korxonalar, mehmonxonalar, davlat, mahalliy aholi va turizmga aloqador bo'lgan barcha tomonlar mas'ul ekanligi ta'kidlanmoqda.

Sayyohlarning o'zi mas'uliyatli turizmga qo'shgan hissasi alohida o'ringa ega, lekin adabiyotda biroz e'tiborga olinmaydi va ular ko'pincha yechimning bir qismi sifatida emas, balki muammoning bir qismi sifatida ko'riladi. Ushbu maqolada turistning harakatlari ham e'tiborga olingan bo'lib, dam olish paytida mas'uliyatli xatti-harakatlarga nima ta'sir qilishini yoki uni cheklashini tushuntirishga xarakat qiladi. Shuningdek, maqolada samarali muloqot va turistlar xulq-atvorni o'rganish bo'yicha ham fikr yuritilgan.

Maqolada muallif tomonidan mas'uliyatli turizm va mas'uliyatli sayyohlarning umumiy ta'riflar keltirilgan. Tadqiqotchilar tomonidan turistlarning sayohat davomidagi bir necha xatti-harakatlari aniqlangan bo'lib, bular qadriyatlar va munosabatlar; axloq va motivatsiya; marketing; tashrif buyuruvchilarni boshqarish; axborot va aloqa.

Umuman olganda mas'uliyatli turizm o'zaro manfaatli ijtimoiy vaziyatlarni yaratish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va odamlar va ularning madaniyatiga g'amxo'rlik va yordam ko'rsatish orqali turizmning mezbon jamoalarga ijobiy ta'sirini rag'batlantirish hisoblanadi. Ushbu shartlar turizmni tashkil etish bilan shug'ullanadigan biznes shakllanish bosqichidayoq amal qilishi mumkin bo'lgan tavsiyalardir.

**Kalit So'Zlar:** *Mas'uliyatli Turizm, Turizmni Rivojlantirish, Turizm Sohasi, Muhim Turistik Komponentlar, Turizm Bilan Bog'liq Tomonlar, Turistik Xatti-Harakatlar.*

## USING THE EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN ORGANIZING TOUR OPERATOR ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

**LeQutlimurotov Fayzullo Sadulayevich**

Alfraganus university

### ABSTRACT

The 21st century is known as age of information to the social life. The exchange of information between countries has accelerated significantly. Over the last two decades, development has been several times more rapid than in previous years. The industry of tourism has not been left behind by such rapid development. Developed countries and earn a lot of money by using technical improvements in the sphere of tourism. Tour operator organizations cannot progress in today's globalized world unless they collaborate with one another. The growth of tour operator classes is critical to developing tourism prospects in our country, as well as in other areas of the economy. Private organization themes are vitally significant in the establishment of a contemporary tourist sector in Uzbekistan that is capable of adapting to rapid changes in the globe. The goal of such changes is to make better use of the established tourist industry in order to stabilize mutual socioeconomic connections between countries across the world and our country. The primary objective of this case is to investigate changes in our country's tourism industry as well as the present operations of travel organizations involved in tour operator activities that positively impact the motivation of visiting visitors. Using a qualitative parametric research approach, the study collected data from interviews with 30 international visitors who visited our country.

**Key Words:** *Tour Operator, Travel Agent, Product Itinerary, Tourism Resources, Accommodation Facilities, Transport Features, Motivation, Tourist, Travel*

## ANNOTATSIYA

Ijtimoiy hayotga XXI asr axborotlar asri bo'lib kirib keldi. Mamlakatlarda o'rtasida axborotlar almashinuvi yuqori darajada tezlashti, iqtisodiy rivojlanish oxirgi yigirma yillikda oldingi yillarga qaraganda bir necha bor tezlashti. Bunday tezlikda rivojlanish turizm sohasini ham chetta qoldirmadi. Turizm sohasida texnologik innovatsiyalarni qo'llash orqali etakchi mamlakatlar yuqori darajada daromad olishmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida turoperator tashkilotlari bir biri bilan o'zaro integratsiyalashuvsiz hech qanday rivojlanishga erish olmaydi. Mamlakatimizda turistik imkoniyatlarni kengaytirishda turoperator tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish boshqa iqtisodiyot tarmoqlarida bo'lgani kabi turizm sohasida ham etakchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda jahondagi keskin o'zgarishlarga moslasha oladigan zamonaviy turizm sohasini rivojlantirishda xususiy tashkilotlar sub'ektlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday islohatlardan ko'zlangan asosiy maqsad, dunyo mamlakatlari bilan mustaqil yurtimiz o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirishda rivojlangan turizm sohasidan samarali foydalanishdir. Ushbu keys tadqiqotining maqsadi mamlakatimiz turizmi sohasidagi o'zgarishlarni hamda tashrif buyurayotgan turistlarning motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi turoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan turistik firmalarning zamonaviy faoliyatlarini o'rganish va tadqiqotda mamlakatimizga tashrif buyurgan 30 nafar xorijiy turistlarning intervyularidan ma'lumot to'plash uchun sifat parametrlarini o'rganish tadqiqot usulidan foydalanildi.

***Kalit So'Zlar:*** *Turoperator, Turagent, Turmarshrut, Turistik Resurslar, Joylashtirish Ob'ektlari, Transport Xususiyatlari, Motivatsiya, Turist, Sayohat*

## THE IMPORTANCE OF CULTURAL HERITAGE TOURISM IN TOURIST MOTIVATION AND HOLIDAY DECISION-MAKING IN UZBEKISTAN

**Shokhrux ABDURAKHMONOV**

Alfraganus University

### ABSTRACT

A significant number of theorists and practitioners from many disciplines, as well as from recently established heritage studies, have theorized, defined, reinterpreted, negotiated and renegotiated the idea of cultural heritage. Cultural heritage tourism is the concept that a region's cultural perspective is valuable enough to make it a travel destination. Communities with a high level of cultural development typically have a high level of contentment with their living circumstances and wealth. In recent years, a considerable number of research in the tourism industry have been devoted to the relationship between cultural heritage and tourist motivation as well as the holiday decision-making process. This field of research has attracted the attention of many disciplines including economics, geography, sociology, history as well as ethnology, sociocultural anthropology, museology and cultural studies. The study intends to establish the value of cultural heritage in tourist motivation and holiday decision-making processes using a qualitative study approach and to reflect their application within a specific national and regional context using a case study of Uzbekistan.

**Key Words:** *Tourism, Cultural Heritage Tourism, Tourist Motivation, Holiday Decision-Making Process, Holiday In Uzbekistan, Importance Of Cultural Heritage*

## ANNOTATSIYA

Ko'pgina oldigi ilmiy izlanishlar shuningdek yaqinda tashkil etilgan merosshunoslikdan ko'plab nazariyotchilar va amaliyotchilar madaniy meros g'oyasini tahlil qildilar, aniqladilar, qayta talqin qildilar, muzokaralar olib bordilar va qayta muhokama qildilar. Madaniy meros turizmi - Madaniy meros turizmi - bu mintaqaning madaniy istiqboli va ushbu manzilni sayohat uchun qulay dargohga aylantirish uchun qiymatli ekanligi haqidagi tushuncha hisoblanadi. Madaniy meros turizmning rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan jamiyatda odatda o'zlarining yashash sharoitlari qisqa muddatda yaxshilab olishga imkoniyatga ega bo'lishadi. So'nggi yillarda turizm sohasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar madaniy meros va sayyohlarni rag'batlantirish o'rtasidagi bog'liqlik shuningdek ta'til qarorlarini qabul qilish jarayoni haqida olib borilgan. Ushbu tadqiqot iqtisodiyot, geografiya, sotsiologiya, tarix, shuningdek etnologiya, ijtimoiy-madaniy antropologiya, muzeyshunoslik va madaniyatshunoslik kabi ko'plab fanlarning e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Tadqiqot turistik motivatsiya va ta'til qarorlarini qabul qilish jarayonlarida madaniy merosning qadr-qimmatini sifat parametrlarini o'rganish tadqiqot usulidan foydalangan holda aniqlash va O'zbekiston misolidan foydalangan holda ularning muayyan milliy va mintaqaviy kontekstda qo'llanilishini aks ettirishdan iborat.

***Kalit So'Zlar:*** *Turizm, Madaniy Meros Turizmi, Turist Motivatsiyasi, Ta'til Qarorlarini Qabul Qilish Jarayoni, O'zbekistonda Dam Olish, Madaniy Merosning Ahamiyati*

## SMART TOURISM IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND PROSPECTS FOR DEVELOPMENT

**Hilola OCHILOVA**

Tashkent State University Of Economics

### ABSTRACT

In the near future, the tourism sector will face digitalization and a shift away from personal contacts, that is, services for the electronic sale of travel services through software products, mobile applications, online consultations, and digital guides will be in demand. We also expect that smart tourism and its infrastructure for independent travel will develop at an accelerated pace in the near future, including an increase in demand for traveling by car. In the context of digitalization of the economy, the tourism industry is developing rapidly and does not stand still. Over the past two years, several applications and interactive services have been launched that contribute to the development of smart tourism in the republic. We all know that the development of smart tourism and the improvement of information and innovative services in the field of tourism improves the quality of services provided and increases the awareness of tourists about the tourism potential of the Republic of Uzbekistan. Digital products of tourist sites create convenience for tourists in moving and visiting attractions. As we know, tourism has been one of the fastest growing and most profitable sectors of the economy in many countries around the world. In the economic sphere, digital tourism is rapidly developing as an innovative direction. Uzbekistan also attaches great importance to the development of tourism, including smart tourism.

**Key Words:** *Smart Tourism, Tourism Prospects, Tourism Development, Mobile Applications, Online Consulting, Online Travel Sales*

## ANNOTATSIYA

Yaqin kelajakda turizm sohasini raqamlashtirish va shaxsiy aloqalardan voz kechish, ya'ni dasturiy mahsulotlar, mobil ilovalar, onlayn maslahatlar va raqamli gidlar orqali sayohat xizmatlarini elektron so-tish xizmatlari talabga ega bo'ladi. Shuningdek, biz aqlli turizm va uning mustaqil sayohatlar uchun infratuzilmasi yaqin kelajakda jadal sur'atlar bilan rivojlanishini, shu jumladan avtomobilda sayohatga bo'lgan talabning oshishini kutmoqdamiz. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida turizm sohasi jadal rivojlanmoqda va bir joyda turmayapti. Oxirgi ikki yil davomida respublikada aqlli turizmni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir qancha ilovalar va interaktiv xizmatlar ishga tushirildi. Barchamizga ma'lumki, aqlli turizmni rivojlantirish va turizm sohasida axborot-innovatsion xizmatlarni takomillashtirish ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirib, sayyohlarning O'zbekiston Respublikasining turizm salohiyati haqida xabardorligini oshiradi. Turistik saytlarning raqamli mahsulotlari sayyohlarga diqqatga sazovor joylarni ko'chirish va tashrif buyurishda qulaylik yaratadi. Ma'lumki, turizm dunyoning ko'plab mamlakatlarida iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va eng daromadli tarmoqlaridan biri bo'lib kelgan. Iqtisodiy sohada raqamli turizm innovatsion yo'nalish sifatida jadal rivojlanmoqda. O'zbekistonda turizm, jumladan, aqlli turizmni rivojlantirishga ham katta ahamiyat berilmoqda.

**Kalit So'zlar:** *Smart Turizm, Turizm Istiqbollari, Turizmni Rivojlantirish, Mobil Ilovalar, Onlayn Konsalting, Onlayn Sayohatlar Savdosi*

## INNOVATIVE TENDENCIES OF TOURISM AND HOTEL BUSINESS DEVELOPMENT IN GLOBALIZATION

**Musayeva Sayyora Abdivaxitovna**  
Alfraganus University

### ABSTRACT

This article is devoted to innovative trends in the development of tourism and hotel business, with special attention paid to the trends of tourism development in Uzbekistan. Due to the creation of new opportunities for the development of the tourism sector by our state, importance is attached to the analysis of the latest changes and developments in the field of tourism and hotel business, as well as the problems arising in the field. The article examines the impact of globalization on tourism and hospitality and describes the innovative trends that lead to changes in the world economy, modern technology and the benefits of the service industry. These trends include digital technologies and interactive applications to facilitate the travel and booking process, as well as mobile applications and online platforms to search and compare prices and hotel services. Special attention is paid to innovations in the hospitality industry, such as the development of eco-friendly and energy-efficient hotels, holding unique cultural and thematic events to attract tourists, as well as using different accommodation formats such as hostels and camps in the heart of nature. The article also explains how Uzbekistan is embracing and adapting these innovative trends in its tourism industry. In Uzbekistan, digital platforms and applications are actively developing in order to provide convenience to tourists, reforms are being carried out in the field of hotel infrastructure, and investments are being made in the development of new formats of accommodation and tourist activities. In conclusion, the article emphasizes the importance of innovations in the development of tourism and hospitality in the context of globalization, and also provides examples of successful innovations in Uzbekistan. This article can be useful for researchers and practitioners in the field of tourism, as well as those interested in the development of the tourism industry in Uzbekistan.

**Key Words:** *Innovative Trends, Digital Technologies, Tourism Industry, Interactive Applications, International Tourist, Online Platforms, Tourism Industry.*



## ANNOTATSIYA

Ushbu maqola turizm va mehmonxona biznesining rivojlanishidagi innovatsion tendentsiyalarga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekistonda turizmni rivojlantirish tendentsiyalariga alohida e'tibor qaratilgan. Davlatimiz tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratilishi asnosida turizm va mehmonxona biznesi sohasidagi so'nggi o'zgarishlar va ishlanmalarni hamda sohaga doir kelib chiqqan muammolarni tahlil qilishga ahamiyat qaratilmoqda. Maqolada globallashuvning turizm va mehmondo'stlikka ta'siri ko'rib chiqiladi va dunyo iqtisodiyoti, zamonaviy texnologiyalar va xizmat ko'rsatish sohasining afzalliklarida o'zgarishlarga olib keladigan innovatsion tendentsiyalarni tavsiflaydi. Ushbu tendentsiyalar qatoriga sayohat va bron qilish jarayonini osonlashtirish uchun raqamli texnologiyalar va interaktiv ilovalar, shuningdek narxlar va mehmonxona xizmatlarini qidirish va solishtirish uchun mobil ilovalar va onlayn platformalar kiradi. Ekologik toza va energiya tejankor mehmonxonalarini rivojlantirish, sayyohlarni jalb qilish uchun noyob madaniy-mavzuviy tadbirlarni o'tkazish, shuningdek, tabiat qo'y-nida yotoqxonalar va oromgohlar kabi turli joylashtirish formatlaridan foydalanish kabi mehmondo'stlik sanoatidagi innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, maqolada O'zbekiston o'z turizm industriyasidagi ushbu innovatsion tendentsiyalarni qanday qabul qilishi va moslashtirayotgani ham tushuntiriladi.

O'zbekistonda sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida raqamli platformalar va ilovalar faol rivojlanmoqda, mehmonxona infratuzilmasi sohasida islohotlar o'tkazilmoqda hamda joylashtirish va turistik tadbirlarning yangi formatlarini rivojlantirishga sarmoya kiritilmoqda. Xulosa qilib aytganda, maqolada globallashuv sharoitida turizm va mehmondo'stlikni rivojlantirishda innovatsiyalarning ahamiyati ta'kidlangan, shuningdek, O'zbekistondagi muvaffaqiyatli innovatsiyalardan misollar keltirilgan. Ushbu maqola turizm sohasidagi tadqiqotchilar va amaliyotchilar, shuningdek, O'zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish bilan qiziquvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

***Kalit So'Zlar:*** *Innovatsion Tendentsiyalar, Raqamli Texnologiyalar, Turizm Sanoati, Interaktiv Ilovalar, Xalqaro Turist, Onlayn Platformalar, Turizm Industriyasi.*

## METHODOLOGICAL ISSUES OF EXPORT OPERATIONS IN THE NATIONAL TOURISM SECTOR

**Khalilov Sirojiddin Sherali ogli**  
Alfraganus University

### ABSTRACT

This article assesses the national tourism sector's export potential. The research looked into the methodological elements of implementing export operations in the national tourism sector. There was also scientific advice on how to improve the implementation of export operations in the national tourism sector. Specific aspects of tourism service export are systematized. The study of the organizational and economic elements of focused development of export activities in the service industry. Proposals for strengthening the strategic management of the national tourism sector have been created as a result of empirical study. The experience of sophisticated foreign nations with a fast rising tourism sector is cited. There was also discussion of the practical concerns of educating highly skilled individuals for the national tourism business. This article includes a bibliographic examination of scientific materials relevant to the methodological concerns of export operations in the national tourism sector. Innovative methods are given for guaranteeing socioeconomic efficiency in the national tourism sector. The ideal distribution of the tourist flow into the nation across areas was particularly examined. The benefits of contemporary technology are centered on the national tourism sector. The advantages of using modern technologies are based on the national tourism sector. Problems in this direction are identified and methods of solving them are explained. Methodical approaches to sustainable development of the national tourism sector in the medium and long term are described.

**Key words:** tourist services, national tourism sector, foreign tourist, tourist flow, export operations, means of accommodation, tour operator, tourist agency, empirical research, export of services.

## ANNOTASIYA

Ushbu maqolada milliy turizm tarmog'ining eksport salohiyati baholangan. Tadqiqot ishida milliy turizm tarmog'ida eksport operatsiyalarini amalga oshirishning uslubiy jihatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, milliy turizm tarmog'ida eksport operatsiyalarini amalga oshirishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar keltirib o'tilgan. Turistik xizmatlar eksportining o'ziga xos xususiyatlari tizimlashtirilgan. Xizmatlar sektorida eksport operatsiyalarini maqsadli rag'batlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari tadqiq qilingan. Empirik tadqiqotlar natijasi sifatida milliy turizm tarmog'ini strategik boshqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqilgan. Bunda turizm industriyasi jadal rivojlanib kelayotgan ilg'or xorij davlatlarining tajribasi keltirib o'tilgan. Milliy turizm tarmog'i uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning amaliy tomonlariga ham to'xtalib o'tilgan. Milliy turizm tarmog'ida eksport operatsiyalarini amalga oshirishning uslubiy masalalariga oid ilmiy manbalar o'rganilib, mazkur maqolada mavzuni yoritishning bibliografik tahlili o'rin olgan. Milliy turizm tarmog'ida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning innovasion yechimlari keltirib o'tilgan. Xususan, mamlakatga kiruvchi turistik oqimni mintaqalararo optimal taqsimlash masalalari ko'rib chiqilgan. Milliy turizm tarmog'ida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari asoslangan. Ayni yo'nalishdagi muammolar aniqlanib, ularni hal qilish usullari yoritilgan. Milliy turizm tarmog'ini o'rta va uzoq istiqbolda barqaror rivojlantirish yuzasidan uslubiy yondashuvlar bayon etilgan.

***Kalit So'Zlar:*** *Turistik Xizmatlar, Milliy Turizm Tarmog'I, Xorijiy Turist, Turistik Oqim, Eksport Operatsiyalari, Joylashtirish Vositalari, Turopertor, Turistik Agentlik, Empirik Tadqiq, Xizmatlar Eksporti.*

## THE ROLE OF SHRINES IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM

**Shakhnoza Tursunkulova**

Alfraganus university

### ABSTRACT

The article examines the tourism opportunities of historical monuments, architectural monuments, places revered as historical saints, unknown to many people. The forms of beliefs associated with visiting the famous shrines of the Islamic world, such as Khoja Ahror Vali, Makhdumi Azami Dahbedi, Sheikh Khudoydodi Vali of ancient Samarkand, are also analyzed.

Currently, architectural monuments of cultural value, associated paintings, sculptures, works of decorative and applied art, historically constituting the territory of architectural monuments, as well as memorial houses, monumental works of art, anthropology, ethnography, numismatics, epigraphy, cartography, photographic materials, films, audio-video recordings, works of literature and art, archival documents, ancient manuscripts and archaeological sites, protection, study and formation of a mature generation. There are comments about its practical use as a spiritual basis. In addition, they can be effective in developing tourism, especially increasing the tourism potential of the shrines of Sufi scholars, revered as historical saints unknown to many. It was said that the further development of regions which are familiar to the local population is necessary in domestic tourism.

The people of Sufism are mainly divided into seven classes: Khalifa, Sheikh, Murshid, Naqib, Wali and Qutb. The highest class in Sufism are the "Qutbs", and they were considered Qutbul-Aktabs during the times of Ghavsul-Azam, Bahawaddin Nakshband, Khoja Ahrori Vali, Makhdumi Azami Dahbedi, Sheikh Khudoydadi Vali, Makhdumi Khorezmi, Imami Rabbani and Musa Khankhoja Dakhbedi.

As representatives of Sufism have written in recent decades, science is not the enemy of enlightenment, but perhaps they served the development of the country, and the path of "Enlightenment" (the basis of Sufism) that they promoted proves this.

As part of the study, visits were made to the mausoleum of Khoja Akh-

ror Vali in Samarkand, historical monuments of Shakhizinda, the shrine of “Vali Baba” in Jambay region and interviews with many pilgrims and tourists. Do you know the shrines of Sufism scholars?, Why do you visit these shrines?, Whose grave is in this shrine, do you have information about his personality and what kind of person he was? My first visit”, “I don’t know what he did”, “I heard that he is a saint”, “now I know”, “I came with intention”, “I wanted to have a child”, “I want to study” , “I think it’s a relief,” etc. similar answers were analyzed that they gave

**Keywords:** *Sufism, Art, Tourism, Mysticism, Places Of Pilgrimage, Morality, Manners, Education.*

## ANNOTATSIYA

Maqolada, hududimizda mavjud bo'lgan tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, ko'pchilikka noma'lum bo'lgan tarixiy aziz avliyolar deb ulug'lanadigan qadamjolarini turistik imkoniyatlari o'rganilgan. Qadim Samarqandning Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A'zami Dahbediy, Shayx Xudoydodi Vali nomli islom olamida mashhur qadamjolarga tashrif bilan bog'liq e'tiqod shakllari tahlil etilgan.

Hozirda madaniy qimmatga ega bo'lgan me'moriy obidalar, ular bilan bog'liq bo'lgan rassomchilik haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati asarlari, me'moriy yodgorliklarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek, memorial uylar, monumental san'at asarlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografika, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-video yozuvlar, adabiyot va san'at asarlari, arxiv hujjatlari, qadimgi qo'lyozma kitoblar hamda arxeologiya yodgorliklarini muhofaza qilish, o'rganish va barkamol avlod tarbiyasini shakllantirishda ma'naviy asos sifatida amaliy foydalanib kelinishi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Bundan tashqari, ulardan turizmni rivojlantirishda ham samaradorlikka erishish mumkin, ayniqsa, ko'pchilikka noma'lum bo'lgan tarixiy aziz avliyolar deb ulug'lanadigan tasavvuf allomalari qadamjolarini turistik imkoniyatlarini oshirish mumkin. Ichki turizmga mahalliy aholiga ma'lum bo'lgan hududlarni ham yanada taraqqiy ettirish lozimligi aytilgan.

Tasavvuf ahli asosan yetti tabaqaga bo'lingan va ular quyidagilardir: Xalifa, Shayx, Murshid, Naqib, Vali va Qutb. Tasavvufda eng oliy tabaqa "Qutb" bo'lib, G'avsul-A'zam, Bahovaddin Naqshband, Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A'zami Dahbediy, Shayx Xudoydodi Vali, Maxdumi Xorazmiy, Imomi Rabboni va Musoxonxoja Dahbediylar zamonalarida qutbul-aq-tob hisoblanganlar.

Tasavvuf namoyandalari oxirgi o'nlab yillar davomida yozganlaridek, ilmu ma'rifat dushmanlari bo'lmay, balkim, ular yurt ravnaqi uchun xizmat qilgan, ular ilgari surgan "Ma'rifat" yo'li (tasavvuf asosi) ham buni isbotlaydi.

Tadqiqot doirasida, Samarqand shahridagi Xoja Ahror Valiy mavzoleyi, Shoxizinda tarixiy obidalari, Jomboy tumanidagi "Vali Bobo" ziyoratgohlariga tashrif va ko'p ziyoratchi va turistlar bilan suhbat olib borilgan. Tasavvuf allomalari qadamjolari ziyoratgohlarini bilasizmi?, Mazkur qadamjolarga nima maqsadda tashrif buyurasiz?, Bu ziyoratgohda kimning qabri borligini, uning shaxsi va qanday inson bo'lgani to'g'risida ma'lumotingiz bormi?, degan savollarga ziyoratchilar tomonidan "xa bilaman", "birinchi kelishim", "nima ishlar qilganini bilmayman", "av-

liyo deb eshitganman”, “endi bilamanda”, “niyat qilib keldim”, “farzandli bo’lmoqchi edim”, “o’qishga kirmoqchiman”, “yengillik deb o’ylayman” va xk. shu kabi javoblarni berishgani tahlil qilingan.

**Kalit So’Zlar.** *Tasavvuf, San’at, Turizm, Tasavvuf Allomalari, Qadamjolar, Ziyoratgoh, Axloqiylik, Odob, Tarbiya.*

## PROBLEMS OF ASSESSING THE DEVELOPMENT TRENDS OF TOURISM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE MECHANISM OF ITS SUPPORT

**Khakimova Dildora Rustam kizi**  
Alfraganus University

### ABSTRACT

Shayboniy hukmdorlar bir tomondan davlat ishlari bilan shug'ullananar ekanlar, boshqa tomondan o'z muvaffaqiyat va yutuqlarini keyingi avlodlarga bildirish uchun tarixnavislik bilan ham shug'ullanganlar. Binobarin, Shayboniylar davlatining asoschisi Muhammad Shayboniyxonning amri bilan sulola tarixini yoritish doirasida tarixiy asarlar, tarjimalar amalga oshirila boshladi. Shayboniyxon Movarounnahr va Xorazmni egallab, Shayboniylar davlatiga asos soldi. Bu davrda turkiy til, turkiy adabiyot va tarixga oid muhim asarlar yozildi. Ham shoh, ham shoir, turkiy adabiyotning muhim namoyandalaridan biri bo'lgan Shayboniyxon boshchiligida mahalliy tarixnavislik shakllana boshladi. 16-asr O'rta Osiyo turkiy tarixnavisligining ilk asarlaridan biri bo'lgan va Shayboniylar sulolasining asoschisi Shayboniyxonga atab yozilgan "Tavorix-i Guzida Nusratnoma" asari O'rta Osiyo xalqlari, xususan O'zbek xalqining tarixi, adabiyoti borasida muhim manba sanaladi.

**Kalit So'zlar:** *Shayboniylar, O'zbeklar, Chig'atoy Adabiyoti, Turkiy Tarixnavislik*

## AN IMPORTANT SOURCE OF THE HISTORY OF TURKESTAN: ABOUT THE COPY OF TAWARIKH-I GUZIDA NUSRATNAMA

ASARI HAQIDA

Avazkhon UMAROV

### ABSTRACT

On the one hand, the Shayban rulers were engaged in state affairs, and on the other hand, they also engaged in historiography in order to convey their successes and achievements to the next generations. Consequently, by the order of Muhammad Shaibani Khan, the founder of the Shaibani state, historical works and translations began to be carried out within the framework of covering the history of the dynasty. Consequently, by the order of Muhammad Shaibani Khan, the founder of the Shaibani state, historical works and translations began to be carried out within the framework of covering the history of the dynasty. Shaybani Khan conquered Movarounnahr and Khorezm and founded the Shaybani state. Important works on Turkish language, Turkish literature and history were written during this period. Local historiography began to be formed under the leadership of Shaibani Khan, who was both a king and a poet, and one of the important representatives of Turkish literature. Tavorikh-i Guzida Nusratnama, which is one of the first works of Central Asian Turkish historians of the 16th century and is attributed to Shaybani Khan, the founder of the Shaibani dynasty, is considered an important source for the history and literature of the peoples of Central Asia, especially the Uzbek people.

**Keywords:** *Shaybanid, Uzbeks, Chagatai literature, Turkic Historiography*

## DEMOKRATIK DAVLATCHILIKNI SHAKLLANTIRISHDA DUNYOVIYLIK VA DINIYLIKNING O'ZARO DIALEKTIKASI.

**Saifnazarov Ismail Saifnazarovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Daniyarov Khooshvakt Tajibayevich**

Alfraganus University

### ANNOTATSIYA

Jamiyatning axloq normalari va qadriyatlari uzoq ming yilliklar davomida ilk davlatchilik tuzilmalari paydo bo'lgunga qadar ibtidoiy diniy e'tiqodlar zahirida shakllangan. Endilikda azaliy qadriyatlarimiz va axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va uni qadrlash har birimizning sharaflari burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi. Ayni paytda, dinlar jamiyat axloqi vositasida ichki va tashqi davlat siyosatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Din – ijtimoiy hodisa, ya'ni jamoatchilik fikrining shakli, insoniyat hayotining ijtimoiy holatidir. U – kishilarning ilmiy va bilish faoliyatini to'ldiruvchi o'ziga xos ruhiy-emotsional holatdir.

Dinga oid siyosat ko'pgina davlatlar ijtimoiy siyosatining bir qismi hisoblanadi. U muayyan tarixiy davrga xos bo'lgan hamda jamiyat siyosiy tizimi, unda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, shuningdek, turli ijtimoiy institutlarning rivojlanish ko'rsatkichlari bilan xarakterlanuvchi murakkab va o'ziga xos ijtimoiy voqeelik sifatida ko'rilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan so'ng davlat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning yangi mexanizmlarini yaratish masalasi yoritilgan.

**Kalit So'Zlar:** *Demokratiya, Sekulyarizm, Terrorizm, Radikalizm, Antisemitizm, Sionizm, Identifikatsiya, Konfessiya, Paradigma.*

## MUTUAL DIALECTICS OF SECULARISM AND RELIGIOSITY IN THE FORMATION OF DEMOCRATIC STATEHOOD

**Saifnazarov Ismail Saifnazarovich**  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

**Daniyarov Khooshvakt Tajibayevich**  
Alfraganus University

### ABSTRACT

The moral norms and values of the society were formed on the basis of primitive religious beliefs for many millennia before the first state structures appeared. Now it is the honorable duty of each of us to preserve and cherish our sacred religion, which embodies our ancient values and moral qualities. Islam means understanding the truth, it encourages people to do good deeds, calls each of us to goodness and peace, teaches to be a real person. At the same time, religions influence the formation of internal and external state policy through the medium of social ethics.

Religion is a social phenomenon, that is, a form of public opinion, a social condition of human life. It is a unique mental-emotional state that complements the scientific and cognitive activities of people.

Religious policy is part of the social policy of many countries. It should be seen as a complex and unique social reality, characteristic of a certain historical period and characterized by the political system of society, socio-economic and political processes taking place in it, as well as indicators of the development of various social institutions.

From this point of view, this article describes the creation of new mechanisms for regulating relations between the state and religion as one of the most important tasks facing the state after gaining independence in the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** *Democracy, Secularism, Terrorism, Radicalism, Anti-Semitism, Zionism, Identity, Confession, Paradigm.*

## SIGNIFICANCE OF SPREADING CULTURE ON THE GREAT SILK ROAD

**Shaxlo Qodirova**

Alfraganus University

### ANNOTATION

The main objective of this article is to formulate the important role of Silk Road which has also been referred to as the Silk Route, in the development of spreading culture all over the world. Admittedly, the myriad of interconnected routes served as a vehicle for the fruitful exchange of arts, religion, cultures, ideas and technology. Therefore, the object of this article is valuable traditions and cultural items of different nations, while the subject of this articles is the tradesmen and local people who shared their cultural values and beliefs in the process of communicating and interacting with each other. Initially, in order to outcome several vital issues, including how cultures impacted on development of trades, how people managed to interact with different background people, how cultures were changed after influenced by other cultures in the article several productive methods were utilized. Comparative methods were utilized in order to compare different cultures, while descriptive methods played an important role in describing the characteristics of phenomenon studied. Qualitative and quantitative methods were utilized to generate factual, reliable outcome data about cultures on the Silk Road and rich, detailed and valid process data based on the scholars' opinions and thoughts. It is inevitable fact that along with spreading goods, cultural samples in the applied art, architecture, wall painting, the countries of the West and the East exchanged music and dances, theater performances. In conclusion this article has found out valuable and reliable information about the influence of culture to local people from physiological and mental prospective and the power of culture to make successful trade in foreign countries, moreover, numerous material proofs which were found to testify on intercultural enrichment on the Silk Road, huge influence on town-planning and architecture which was rendered by international dialogue carried out along the Silk Road.

**Keyword:** *Language, Trade, Culture, Silk, Origin, Communication, Intercultural Communication.*

## DAVLAT BOSHQARUVINI NOMARKAZLASHTIRISH JARAYONIDA PARLAMENTNING TA'SIRINI OSHIRISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

**M.Isabayev**

*Yoshlar Muammolarini O'rganish Va Istiqbolli Kadrlarni Tayyorlash  
Institute*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada davlat hokimiyatining oliy vakillik organining davlat siyosatini yuritishdagi vakolatlaridan to'laqonli foydalana olishi, ijro hokimiyatining parlament oldidagi mas'uliyatini oshirish kabi konseptual muammoli masalalar ilmiy asoslarda yoritishga e'tibor qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinguniga qadar amaldagi normalar bo'yicha faoliyat yuritayotgan vakillik hokimiyati to'g'risidagi holatlar tahlil etilgan. Vakillik hokimiyatiga doir mavjud qonunlarni tahlil qilish orqali ijro hokimiyati bilan o'zaro munosabatlarining siyosiy jihatlari diagramma va jadvallar orqali ilmiy asoslab berilgan. Senatorlarning ayni vaqtda mahalliy ijro hokimiyatida ishlab kelayotgan fuqarolar orasidan shakllantirilishi ijobiy qonunlarni qabul qilinishini qiyinlashtirishi hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati o'rtasida nizolarga sabab bo'lishi mumkinligi ilgari surilgan. Bundan tashqari, Senatning ijro hokimiyati faoliyati ustidan nazorat vakolatlari ham to'laqonli amalga oshirishiga to'sqinlik qilishi kabi holatlar ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, parlamentning yuqori palatasi senatning shakllantirilishi bo'yicha Germaniya va Fransiya kabi rivojlangan chet el davlatlar tajribasi qiyosiy o'rganilib, uning ijobiy jihatlari ta'kidlangan. Ushbu maqola orqali O'zbekiston Respublikasidagi oliy vakillik institutining yuqori palatasini takomillashtirishga doir amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit So'Zlar:** *Boshqaruv, Davlat Boshqaruvi, Nomarkazlashtirish, Parlament, Senat, Ijro Hokimiyati, Kengash.*

## ABSTRACT

In this article, attention is paid to the scientific analysis of conceptual problems, such as the full use of the powers of the supreme representative body of the state power in the conduct of state policy, increasing the responsibility of the executive power before the parliament. In particular, the cases of the representative power operating according to the current norms before the adoption of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan were analyzed. By analyzing the existing laws on representative power, the political aspects of the interaction with the executive power are scientifically justified through diagrams and tables. It has been suggested that the formation of senators from among the citizens working in the local executive power will make it difficult to adopt positive laws and may cause conflicts between the Legislative Chamber and the Senate of the Oliy Majlis. In addition, scientific analysis has been carried out to prevent the full exercise of the Senate's powers of control over the activities of the executive branch. Also, the experience of developed foreign countries such as Germany and France on the formation of the senate, the upper house of the parliament, was comparatively studied and its positive aspects were highlighted. Through this article, practical suggestions for improving the upper chamber of the higher representative institute in the Republic of Uzbekistan have been put forward.

**Keywords:** *Management, Public Administration, Decentralization, Parliament, Senate, Executive Power, Council.*



## NOTES ON SEYLA'S BENHABIB INTERPRETATIONS OF THE COSMOPOLITAN RIGHTS

Gianluigi Segalerba

IEF – Instituto de Estudos Filosóficos, Universidade de Coimbra

### ABSTRACT

My essay is dedicated to the analysis of aspects of Benhabib's interpretations of the birth of cosmopolitan rights. The expression "the right to have rights" is contained in different works of Seyla Benhabib: it refers, in the thought of Benhabib, to the birth of a new constellation of human rights. This new constellation of human rights consists in the claim, which every individual may raise, to be acknowledged and protected as a person by the world community. In Benhabib's view, rights and the interpretation of rights have profoundly changed after and thanks to the different covenants and conventions signed by the countries belonging to the world community for the protection of human rights: this process of transformation of the interpretation of human rights began with the Universal Declaration of Human Rights of 1948.

The new dimension of human rights is a cosmopolitan one: it is not merely a national dimension. This new dimension overcomes the dimension of particular countries; it promotes, and, at the same time, it calls for the creation of new juridical spaces. Through this new dimension, moreover, individuals are no longer seen as being only citizens of a particular country: individuals are elevated, thanks to the new dimension of the rights, to the condition of world citizens possessing rights which are independent of their belonging to a particular country. Cosmopolitan norms create a new universe of values, of juridical meanings and of social relationships that did not exist at all before the creation of these norms. Seyla Benhabib has expressed the birth of the new constellation of rights in many of her works such as, for instance, *The Rights of Others. Aliens, Residents and Citizens, Another Cosmopolitanism. With Commentaries by J. Waldron, B. Honig, W. Kymlicka, and Dignity in Adversity. Human Rights in Troubled Times.*

The new dimension of rights directly (that is, without the mediation of a particular country) connects every individual to the world community: the right dimension does not depend on a particular country, and it is not limited to the validity it possesses within a particular country.

The authority that corresponds to and is responsible for, at least, some rights of the individuals is the world community. The rights of men *qua* men, that is, the rights independent of a determined citizenship and not coinciding with a determined citizenship emerge gradually, even though this process is steadily being affected by backlashes.

As covenants and conventions signed by the countries of the world community, Benhabib mentions the United Nations Convention on the Prevention and Punishment of the Crime of Genocide (adopted by the United Nations General Assembly on 9 December 1948); the Convention Relating to the Status of Refugees (approved on 28 July 1951); the International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination – ICERD – (adopted by the United Nations General Assembly on 21 December 1965); the International Covenant on Civil and Political Rights – ICCPR – (adopted by the United Nations General Assembly on 16 December 1966); the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights – ICESCR – (adopted by United Nations General Assembly on 16 December 1966); the Convention on the Elimination of all Forms of Discrimination Against Women – CEDAW – (adopted by the United Nations General Assembly in 1979); the Convention Against Torture and Other Cruel, Inhuman or Degrading Treatment or Punishment – UNCAT – (adopted by the United Nations General Assembly on 10 December 1984).

Within the new constellation of human rights, particular countries are being surpassed by the world community: the particular countries do not represent the first and last authority for the acknowledgement of rights. Correspondingly, individuals possess determined rights *qua* human beings: to have certain rights does not depend on the individuals' possession of a particular citizenship; to have rights depends on the fact that individuals belong to mankind. A new dimension of the individuals comes about: individuals are not only citizens of a country; they are, first of all, human beings, and they ought to be recognised as human beings.

Benhabib sees a fundamental difference between the Westphalian and the post-Westphalian concept of country and rights. Within the Westphalian interpretation of rights, countries are the first and last authority for the acknowledgement of rights. Within the post-Westphalian interpretation of rights, countries depend on common values and on common principles which they have accepted: countries obligate themselves to the protection of definite rights and definite principles; this means that countries acknowledge these rights and these principles as being over the sovereignty of the countries themselves. A new dimension of countries, a new dimension of rights, and a new dimension of individuals arise at the same time.

## ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR AL-BOQIYA" ASARIDA QADIMGI VA O'RTA ASRLARGA OID YORITILGAN TARIXIY MASALALAR

**Fazliddin TOJIYEV**  
Alfraganus University

### ANNOTATSIYA

Maqolada, Podshohlarning sonlari, ismlari, hukmronlik yillari haqidagi ixtiloflar hamda diniy kitoblardagi ixtiloflar bayon qilingan. Beruniy payg'ambarlar tarixini tekshiruvchi sifatida har xil dinlarning tarix haqidagi da'volariga oid shubhalarni, dinlarning bir-birlarini ayblashlarini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, ushbu maqolada, eronliklar o'xshash nomlarni aralashtirib yuborganligi sababli Ardasher bilan Yazdigard o'rtasidagi 676 yillik davrni ko'rsatmaganliklari bayon etilgan.

Beruniy shuningdek xar xil asrlarda yashagan boshqa olimlar o'rtasidagi ilmiy munozaralarni tadqiq qiladi. Sobit ibn Qurra bilan Jolinus, hamda Ar-Roziy bilan Tammor fikrlari orasidagi kelishmovchiliklar shular jumlasidandir.

Shuningdek, maqolada, Xorazm haqida so'z yuritib ularning tarixi Xorazmga odamlar joylasha boshlashidan boshlanadi deb bayon qilgan. Bu Iskandardan to'qqiz yuz sakson yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Beruniy Iskandar laqabi borasida turli fikr mulohazalarni jamlab ularni tavsiflab chiqishga harakat qilgan. Jumladan, uning yozishicha, ba'zilar Iskandar degandada u quyoshning ikki "shoxiga", ya'ni kun chiqish va kun botish tomonlarga borganligi sababini keltirishsa, ba'zilar Iskandar ikki nasldan ya'ni Rum va Eronlikdan tug'ilgani uchun bu laqabi oldi deb ta'riflashgan.

Maqolada Zulqarnayn laqabini olgan shaxsning kimligini aniqlash bo'yicha turli millatlarning ixtiloflari ustida ham ma'lumotlar keltirilgan. Zulqarnayn (ikki shoxli) Qur'oni Karimda nomi zikr etilgan tarixiy shaxslardandir.

Maqolada, tarixda bo'lib o'tgan voqelarning bir biriga to'g'ri kelmasligi, yillarni va sanalarni hisoblashda adashishganligini qiyosan ochib berilgan.

**Kalit So'Zlar:** *"Osor Ul-Boqiya" Asari, Beruniy, Tarixiy Voqealar, Ashkoniylar, Xorazmshohlar Sulolasi, Payg'Ambarlar Tarixi, "Zulqarnayn" Shaxsi, Ixtiloflar, Yil O'Lchamlari.*

## DUNYONING MIFOLOGIK VA DINIY MANZARASIDA TABIIY-ILMIY BILIMLARNING FALSAFIY XUSUSIYATLARI

**Sultonmurod PARDAYEV**  
Alfraganus University

### ANNOTATSIYA

Insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi bosqichlarida tabiat hodisalarining mohiyatini bilmaslik oqibatida insoniyat dunyoqarashida ulardan qoʻrquv hissining shakllanishiga olib kelganligi tahlil etilgan. Xususan, qadimgi Yunoniston, Rim, Hindiston va Xitoyda paydo boʻlgan ilk tabiiy-ilmiy bilimlar tabiiy mavjudotlar deb nomlangan: suv, havo, quyosh, tuproq, oy, yulduzlar hamda atrof-muhitda sodir boʻladigan tabiiy hodisalar: quyosh va oy tutilishi, dovul, yomgʻir, toʻfon, momaqaldiroq, chaqmoq, doʻl yogʻishi, sel kelishi, suv toshqinlari, togʻlarning siljishi, qurgʻoqchilik va boshqa tabiiy hodisalar xudolarning siymosi sifatida tan olinishi asoslab berilgan. Jumladan, eng qadimgi davrda insoniyat tomonidan tabiatga tartibsiz munosabatda boʻlish oqibatida turli darajadagi tabiiy-ilmiy jarayonlar yuz berganligi yoritib berilgan. Shuning uchun ham, maqolada, bu koʻrinishdagi tabiatga notoʻgʻri munosabatning natijasida qadimgi insonlarda tabiatda yuz berayotgan tabiiy hodisalarga nisbatan qoʻrquv hissini yuzaga kelishiga olib kelganligi eʼtirof etilgan. Shunisi eʼtiborga molikki, mifologiyadagi tabiiy-ilmiy bilimlarga oid gʻoyalalar antik davr tarixida oʻz izini qoldirganligi talqin etilgan. Xususan, antik davrda mifologik bilimlar bosqichma-bosqich tarzda oʻzining xususiyatlarini va qonuniyatlarini ochiq-oydin oshkor qila boshlagan. Aynan qadimgi miflarda dunyo manzarasining ilk ilmiy kurtaklari kuzatilishi keltirib oʻtilgan. Qolaversa, antik davr falsafasida miflar yaralishining bir qator tabiiy-ilmiy gʻoyalari tabiatshunos olimlar tomonidan ishlab chiqilganligini etirof etilgan. Shu bilan birga, oʻsha davrlarda yuzaga kelgan tabiiy-ilmiy bilimlarning keyinchalik qayta qiyosiy talqin qilinishi uchun yangi davrga kelib yetarli darajada amaliyot shakllanganligi asoslab berilgan.

Jumladan, Qadimgi Misrning juda koʻp miflarida quyoshni yaratuvchi va olamni shakllantiruvchi ilohiy birlik sifatida biror hayvon yoki qush kelishi yoritilgan. Xususan, bizgacha etib kelgan miflarga koʻra, ulkan, butun tanasi boʻylab yulduzlar tarqalgan sigir koʻrinishidagi osmon oltin buzoqcha shaklida quyoshni dunyoga keltirganligi yoritilgan. Bu haqida «Piramidalar matnlari»da ham maʼlumot bor va unda osmon tomonidan

dunyoga keltirilgan oltin buzoqcha «Ra» to'g'risida fikr yuritilganligi tahlil qilingan. Shu ma'noda Olam yaratuvchisi va barcha tirik mavjudotlarning onasi sifatidagi buyuk sigir to'g'risidagi qarashlar hozirgi davrda ham Afrika mamlakatlaridagi xalqlar og'zaki ijodida ham keng tarqalganligini aytish e'tirof etilgan.

**Kalit So'zlar:** *Mif Syujeti, «Ulkan Portlash» Nazariyasi, Arxaik Bilimlar, Singulyar, Mif Va Logos, Mikrokosm, Universal Birlilik, Makrokosm, Tabiiy-Ilmiy Bilimlar.*

## SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA SIVILIZATSION YONDASHUV METODINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Akmal Gadaimurodovich Abdullaev**  
Alfraganus University

### ANNOTATSIYA

Jamiyatshunoslik fanlarida sivilizatsion yondashuv o'ziga xos boy tarixga ega. Sivilizatsion yondashuv tarix, falsafa, ijtimoiy falsafa, dinshunoslik, madaniyatshunoslik va tarix falsafasi fanlari doirasida shakllangan. Sotsiologiyada esa sivilizatsion yondashuv xar bir ijtimoiy hodisa yoki voqelikni madaniyat va dinning bog'liqlik fragmentlarini alohida tahlil qilish bilan tavsiflash mumkin. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng O'zbekiston tarixni tiklash va haqqoniy tarixni yuzaga chiqarish bilan birga tarixiy sotsiologiyaning modernizatsiya nazariyalari doirasida turli jamiyatlarning rivojlanish va birlashishdagi ijtimoiy shakllari bo'yicha kuzatilgan universalizmning yetishmasligi sivilizatsiya nazariyasidan foydalanish zarurati borligi yaqqol namoyon bo'ldi.

1990-yillarda O'zbekistonda sotsiologiya fani alohida fan sifatida shakllanishi, shu jumladan jamiyatni isloh qilish va modernizatsiyalash muammolari nuqtayi nazaridan sivilizatsion yondashuv zamonaviy global dunyoni o'rganishda boshqa yondashuvlar qatorida muqobil yondashuv sifatida yuzaga keldi. Sivilizatsiyalar nazariyasini ilmiy nazariy tahlil qilish bizga sotsiologiya metodologik bazasini yanada boyitish va uning doirasida sotsiologik tadqiqotlarni madaniyat, din, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy guruhlarining o'ziga xosliklarini yagona madaniy va sivilizatsion majmuasida o'rganish imkonini beradi.

Maqolada sotsiologik tadqiqotlar strategiyasini ishlab chiqishda sivilizatsion yondashuvning o'rni va ahamiyati muhimligi yoritilib, G'arb va Sharq sotsiologiyasida jamiyat sotsial stratifikatsiyaga doir tadqiqotlarni olib borishdagi farqlar aynan sivilizatsion yondashuvlar aks etishi yoritilgan. Bundan tashqari G'arb olimlaridan Shmuel Eyzenshtadt, Arnold Toynbi, Pitirim Sorokin, Semyuel Xantington va Frensis Fukuyamalarining sivilizatsiyaga oid konsepsiyalari tahlil qilingan. Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy va Ibn Xaldunning ko'chmanchi va sivilizatsiyalashgan jamiyatlar sharoitida zamonaviy umumiy va maxsus sotsiologiyaning deyarli barcha asosiy muammolarini har tomonlama ko'rib chiqqanligi va ularning ta'limotlari hozir ham zamo-

naviy ko‘rinishga ega ekanligi yoritilgan.

**Kalit So‘zlar:** *Sivilizatsiya, Sivilizatsion Yondashuv, Sotsiologik Tadqiqotlar, Sotsiologik Tadqiqotlar Strategiyasi, Madaniyat, Din, Ijtimoiy Institutlar, Ijtimoiy Guruhlar, Ko‘chmanchi Xalqlar, G‘arb Sotsiologiyasi, Sharq Sivilizatsiyasi, Tarix Sotsiologiyasi, Madaniy-Sivilizatsiyalar, Identifikatsiya, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Xaldun.*



## ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH AMALIYOTI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

**Xolida ZIYAYEVA**  
Alfraganus University

### ANNOTATSIYA

Oiladagi zo'ravonlik muammosi butun dunyoda dolzarbdir. Vaqt o'tishi bilan jamiyat va davlatning oiladagi zo'ravonlikka munosabati o'zgaradi, biroq faqat o'tgan asrda zo'ravonlik ijtimoiy muammo sifatida e'tirof etila boshlandi va bu muammo bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar tomonidan salbiy baholandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, zo'ravonlik nafaqat noto'liq oilalarda, balki nufuzli ish joylari, oliy ma'lumotli va barqaror moliyaviy ahvolga ega bo'lgan fuqarolar orasida ham qo'llaniladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, erkaklar ham, ayollar ham, bolalar va qariyalar ham zo'ravonlikka duchor bo'lishadi, lekin ko'pincha ayollar va bolalar bunday jinoyatlarning qurboni bo'lishadi. Zo'ravonlik nafaqat jismoniy, balki ruhiy majburlashning bir ko'rinishidir. Ayollar ko'pincha o'zlariga nisbatan sodir etilgan zo'ravonlik holatlari haqida ichki ishlar organlariga xabar bermaydilar.

Mamlakatimizda zo'ravonlikni kamaytirish, maishiy zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarni davlat tomonidan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teng ravishda xotin-qizlarga ham o'z iqtidori, iste'dodini erkin namoyon qilishga keng imkoniyatlar yaratib berish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2022-yil 25-iyunda xalq muhokamasiga qo'yilgan Konstitutsiyaviy qonun loyihasi e'lon qilindi. Ushbu loyihada Kuchli ijtimoiy himoya va muhtojlarga g'amxo'rlik davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. va ushbu yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston –ijtimoiy davlat sifatida e'tirof etilgan insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik-davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekanini mustahkamlanmoqda.

Yurtimizda bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yil 2-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, 2019-yil 2-sentyabrdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonunlarning imzolanishi bu muammolarning naqadar jiddiy ekanligini isbotladi. Unda oilaviy-maishiy

zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri etib, jamiyatda oilaviy-maishiy tUSDagi zo'rlik ishlatishning har qanday ko'rinishiga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlash belgilandi. Shuningdek, mamlakatimizda xotin-qizlar huquqlarini yanada mustahkamlash va ularga teng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy faolliklarini oshirish maqsadida xalqaro hamjamiyatlar bilan ham bir qator xalqaro hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi» 829-sonli Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o'z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishida qo'llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, shuningdek bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo'yuvchi o'zgartishlar kiritilmoqda. Ushbu Qonun xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo'ravonlikning oldini olishga, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog'liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi, shuningdek Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya, bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) komissiyalari faoliyatining mustahkam huquqiy asosini yaratadi.

***Kalit So'zlar:*** *Ijtimoiy Davlat, Xotin-Qizlar, Zo'ravonlik, Himoya Orderi, Tazyiq, Reabilitatsiya, Shelterlar, Tibbiy, Psixologik Va Huquqiy Yordam, Gender Tenglik, Shilqimlik, Bolalarga Nisbatan Zo'ravonlik.*

## MILLATLARARO TOTUVLIK VA KONFESSIYALARARO HAMJIHATLIK – YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING MUHIM OMILI

**Ismoil SAIFNAZAROV**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

### ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatida eng muhim omillardan biri sifatida "millatlararo totuvlik va diniy konfessiyalararo hamjihatlik ekanligini ochib bergan. Xususan, ko'pmillatli xalqimiz – bizning eng katta boyligimiz, barcha yutuq va marralarimizning mustahkam asosi, hozirgi yoshlarimizni nafaqat elparvar, vatanparvar sifatida, balki milliy va diniy bag'rikeng inson sifatida tarbiyalash asoslari yoritib berilgan. Qolaversa, yoshlarimizni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash, ularni turli zararli va yot g'oyalarga ta'siridan asrashga, ularni vatanparvar, bilimli, bag'rikenglik an'analarga sadoqat ruhida turbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanligi keltirib o'tilgan. Jumladan, globallashuv sharoitida, axborot xurujlari tezlashgan, yoshlarning ongi va qalbi uchun kurash kechayotgan, eng asosiysi, ularning dunyoqarashi o'zgarib borishi, bugungi davrda yoshlar siyosati sohasi yangicha uslub va mexanizmlar asosida asoslab berilgan. Shu bilan birga, konfessiyalararo hamjihatlik yo'nalishida yoshlarga oid davlat siyosati muhim qirralari tahlil qilingan. Jumladan, Yaqin Sharq va Afrika davlatlarida kuzatilayotgan juda ko'p mojarolar, ziddiyatlar ortida yoshlarga oid davlat siyosatining yo'qligi sabablari tahlil qilingan. Ayniqsa, ko'pmillatli xalqimiz – bizning eng katta boyligimiz, yurtimizdagi millatlar va konfessiyalararo hamjihatlik – barcha yutuq va marralarimizning mustahkam asosi ekanligi talqin qilingan. Insoniyat uchun eng katta boylik tinchlik ekanligi, tinchlikning manbai esa hamjihatlik ekanligi yoritib berilgan. O'zaro totuvlik va do'stlik, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari barqaror go'shadagina inson erkin-emin yashaydi, har qanday orzusi ekanligi ochib berilgan. Shu jihatdan qaraganda, bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy yutug'imiz, Yurtboshimiz uqtirganidek, avvalo, Vatanimiz osmonining musaffoligi, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo ahillik va hamjihatlik, do'stlik va birdamlik ekanligi asoslab berilgan. Xususan, bu ne'matlarning qadriga yetish hamda turli millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashayotgan Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, kimligimizdan qat'i nazar, barchamizning

muqaddas burchimiz ekanligi tahlil qilingan.

Shu o'rinda istiqlol arafasidagi Farg'ona va O'sh voqealari, mitingbozlik, parokandalik, iqtisodiy tushkunlik, boshqa millat vakillarida qo'rquv va hadixsirash holatlalari ochib berilgan. Bunday sharoitda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun siyosiy va iqtisodiy vaziyatni izga solish, millatlararo munosabatlarning barqaror tizimini yaratish, odamlarda ertangi kunga ishonch tuyg'usini uyg'otish zarurligi tahlil qilingan. Shuningdek, istiqlol yillari Vatanimizda yashayotgan turli xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, tenghuquqlilik va hamjihatlikni mustahkamlashga, uning qonuniy asoslarini yaratishga jiddiy e'tibor qaratilishi asoslab berilgan. Bu tamoyillar O'zbekiston Konstitutsiyasi va barcha qonunlarimizda muhrlab qo'yilganligi yoritilgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning O'zbekiston davlati o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi alohida ko'rsatilgan. Mamlakatimizning barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi belgilab qo'yilganligi tahlil qilingan.

***Kalit So'Zlar:*** Millatlar, Bag'Rikenglik, Yoshlar, Tinchlik, Hamjihatlik, Bag'Rikenglik, Totuvlik, Konfessiyalar, Mahalla.

## THE PHENOMENON OF TOLERANCE OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA

**R.H.Murtazaeva.**

National university of Uzbekistan

### ABSTRACT

In the article, it is stated that in the 21<sup>st</sup> century of globalization, increasing the role and significance of the principle of tolerance in the fate of the current world, and rising to the level of an incredibly unique cultural event and phenomenon in the life of society.

It is emphasized that the Central Asian region is increasingly gaining its place in the world community and participates in socio-political and economic processes on an equal basis.

The fundamental goal of the article is to demonstrate the derivation of national and religious tolerance in this region, and the author explained that tolerance was formed in the beginning of mankind, when the civilizations of the Ancient East appeared, based on the information of the first written sources.

In the article, it is proved that the representatives of indigenous peoples of the Central Asian region have been living side by side with the peoples of other nationalities and religions since ancient times, and tolerance among the peoples has become not only a need created by necessity, but a way of life.

In the article, in order to ensure the environment of peace and religious tolerance in the country, the principles of Islam teaching to compromise with representatives of other religions, to cooperate with them in worldly affairs and to live in harmony are of special importance. It has been revealed that the fact that accepting or not accepting the religion depends on the heart and is considered as an act of a person's full discretion, is one of the main factors for the stability of the atmosphere of religious tolerance in the region.

The concept of "tolerance" is widely used in various fields of scientific activity and social life, including politics, philosophy, theology, social ethics, and comparative theology. "Tolerance" comes from the Latin word "tolerare", which means "to put up with", "to put up with". means accepting with tolerance and patience. In the article, our three-thousand-year

history testifies to the fact that nobility and humanitarianism, striving for inter-ethnic harmony, are among the virtues of our people.

**Keywords:** *tolerance, youth, state policy, education, values, traditions.*

## MARKAZIY OSIYO XALQLARINING BAG'RIKENGLIK FENOMENI

**R.H.Murtazaeva.**

National university of Uzbekistan

### ANNOTASIYA

Maqolada XXI globallashuv asrida bag'rikenglik tamoyilining o'rni va roli, hozirgi dunyo taqdiridagi ahamiyati o'sib, jamiyat hayotida g'oyat noyob madaniy hodisa, fenomen darajasiga ko'tarilganligi haqida fikr yuritilgan. Markaziy Osiyo mintaqasi jahon hamjamiyatida tobora o'zining o'rniga ega bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarda teng huquqli asosda ishtirok etishi ta'kidlangan. Maqolada qo'yilgan asosiy maqsad bu mintaqada hududida milliy, diniy bag'rikenglik shakllanganligini ko'rsatishdan iborat bo'lib, muallif insoniyat ibtidosida bag'rikenglik Qadimgi Sharqning sivilizatsiyalari paydo bo'lgan davrlardayoq shakllanganligi ilk yozma manbalar ma'lumotlarga tayangan holda yoritilgan. Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasining mahalliy millat vakillari qadimgi davrdan boshlab hozirgi kungacha o'zga millat va din vakillari bilan yonma-yon yashab kelgan xalqlarda bag'rikenglik faqat zarurat keltirib chiqargan ehtiyoj emas, balki hayot tarziga aylanganligi isbotlangan.

Maqolada o'lkada tinchlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashda islom ta'limotidagi o'zga din vakillari bilan o'zaro murosa yo'lini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjihatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etganligi, ayniqsa, islom ta'limotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbga bog'liq, insonning to'liq ihtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bag'rikenglik muhiti barqaror bo'lishi uchun asosiy omillardan bo'lganligi ochib berilgan.

“Bag'rikenglik” tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy ahloq, qiyosiy dinshunoslik kabi sohalarda keng istifoda etiladi. “Tolerantlik” lotincha “tolerare”, ya'ni “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma'nosini anglatgan bu so'z, asosan biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. “Tolerantlik” lotincha “tolerare”, ya'ni “chidamoq”, “sabr qilmoq” ma'nosini anglatgan bu so'z, asosan biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan,

ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi ma'no kasb etib, "chidamlilik" "bardoshlilik", "toqatlilik", "o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish", "muruvvatlilik", "ximmatlilik", "kechirimlilik", "mehribonlik", "hamdardlik" kabi ma'nolarga ega. Maqolada uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning fazilatlaridan hisoblanishi ochib berilgan.

***Kalit So'zlar:*** Bag'rikenglik, Yoshlar, Davlat Siyosati, Ta'lim-Tarbiya, Qadriyatlar, Urf-Odatlar.



## **PRIVATE ENTREPRENEURSHIP AND ENTREPRENEURSHIP THE SOCIAL ESSENCE OF THE CHANGE OF SPIRITUAL CULTURE OF YOUTH**

**Jamoliddin Abduraximovich Mamanov**  
Alfraganus University

### **ABSTRACT**

In this article, among the factors affecting the formation of the spiritual culture of the youth, the economy, entrepreneurship, business spheres, the practical works carried out by the leadership and the government of the Republic of Uzbekistan in these spheres and their results, the work on ensuring the employment of the youth, the youth book philosophical analysis of the directions of reforms in support of needy youth by the organization and youth notebook fund. Also, the article provides suggestions on crimes committed among young people and their causes, crime prevention and delinquency prevention. The fact that it is one of the main factors that cause crime and delinquency among today's youth has been researched based on the analysis of crimes in Uzbekistan in recent years. In particular, during the 8 months of 2022, 13,657 crimes were committed by young people. 3,180 in Fergana region, 1,429 in Tashkent region, 1,404 in Tashkent city, 1,069 in Surkhandarya region, 995 in Samarkand region, 930 in Andijan region, 904 in Kashkadarya region, 845 in Namangan region, 789 in Bukhara region, 532 in Navoi region, 438 in Jizzakh region, 421 in the Republic of Karakalpakstan, 300 in Syrdarya region, 249 in Khorezm region, 172 in Transport. 1,743 of the youth who committed crimes were women, 761 were university students, and 3,468 were unemployed youth. As a result, there is a high incidence of crime among unemployed young people. It was analyzed that one of the main ways to ensure the employment of young people is to create new jobs and open up favorable opportunities for young people for entrepreneurship. In the conditions of today's Uzbekistan, several changes have been made to the legislation on ensuring the employment of young people. In particular, in recent years, about 10 new decisions and decrees have been developed and implemented. In particular, in the article, the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6208 dated April 20, 2021 "Additional measures to support the entrepreneurial activity and employment of young people, their social protection and meaningful organization of free time "On Activities" decree focuses on the analysis of

new opportunities for young people, family entrepreneurship, women's involvement in private entrepreneurship.

**Keywords:** *Culture, Spiritual Culture, Youth, Entrepreneurship, Business, Private Entrepreneurship, Family Entrepreneurship, Employment, Crime.*

## XUSUSIY TADBIRKORLIK VA ISHBILARMONLIK YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATI O'ZGARUVCHANLIGINING IJTIMOIY MOHIYATI

**Jamoliddin Abduraximovich Mamanov**  
Alfraganus University

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar ma'naviy madaniyati shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan iqtisod, tadbirkorlik, ishbilarmonlik sohalarini, ushbu sohalarida O'zbekiston Respublikasi rahbariyati va hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy ishlar va ularning natijalari, yoshlarning bandligini ta'minlash borasidagi ishlar, yoshlar daftarinin tashkil etilishi va yoshlar daftari jamg'armasi tomonidan ehtiyojmand yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yo'nalishlari falsafiy tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlar va ularning sabablari, jinoyatchilik va huquqbuzarlikni oldini olish borasidagi takliflar berilgan. Bugungi yoshlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarning eng asosiy-laridan biri sifatida sabab bo'layotganligi O'zbekistondagi oxirgi yillardagi jinoyatlar tahlili asosida tadqiq etilgan. Xususan, 2022 yilning 8 oyi davomida 13 657 ta jinoyatlar aynan yoshlar tomonidan sodir etilgan. Farg'ona viloyatida 3 180 ta, Toshkent viloyatida 1 429 ta, Toshkent shahrida 1 404 ta, Surxondaryo viloyatida 1 069 ta, Samarqand viloyatida 995 ta, Andijon viloyatida 930 ta, Qashqadaryo viloyatida 904 ta, Namangan viloyatida 845 ta, Buxoro viloyatida 789 ta, Navoiy viloyatida 532 ta, Jizzax viloyatida 438 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 421 ta, Sirdaryo viloyatida 300 ta, Xorazm viloyatida 249 ta, Transportda JXTB-da 172 tani tashkil etadi. Jinoyatga qo'l urgan yoshlarning 1 743 nafarini xotin-qizlar, 761 nafarini oliy o'quv yurti talabalari, 3 468 nafarini band bo'lmagan yoshlar tashkil etgan. Bundan kelib chiqadiki, bandligi ta'minlanmagan yoshlar orasida jinoyatga qo'l urish holati ko'p uchraydi. Yoshlarni bandligini ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri bu yangi ish o'rinlarini yaratish va yoshlar uchun tadbirkorlik uchun qulay imkoniyatlarni ochib berish lozimligi tahlil etilgan. Bugungi O'zbekiston sharoitida yoshlarni bandligini ta'minlash borasida qonunchilikga bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Xususan o'irgi yillarda 10 ga yaqin yangi qaror va farmonlar ishlab chiqilib hayotga tadbiiq qilindi. Jumladan maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-aprelda-

gi PF-6208-son «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» farmoni bilan yoshlarga berilayotgan yangi imkoniyatlar, oilaviy tadbirkorlik, ayollarni xususiy tadbirkorlikka jalb qilish masalalari tahliliga e'tibor qaratilgan.

***Kalit So'zlar:*** *Madaniyat, Ma'naviy Madaniyat, Yoshlar, Tadbirkorlik, Ishbilarmonlik, Xususiy Tadbirkorlik, Oilaviy Tadbirkorlik, Bandlik, Jino-yatchilik.*

## MODERNIZATSIYA - TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING MUHIM OMILIDIR

**Aziza Berdieva**

Toshkent amaliy fanlar universiteti

### ANNOTATSIYA

Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o'tadi. Shunday ekan, modernizatsiya ta'lim sifatini yaxshilashga muhim omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy savodxonlik talabalarning mamlakatimizning iqtisodiy hayotida yuz berayotgan voqelikka jamiyat taraqqiyoti va jahon miqyosidagi jarayonlar birligi nuqtai nazaridan qarashni o'rganishlari bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz iqtisodiy fanlarning rolini nihoyatda oshishiga olib keldi. O'z navbatida, bu fanlarni o'qitish zamon talabiga javob berishi zarur. Buning uchun esa har bir o'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashishi, o'z ustida tinimsiz ishlab, izlanishi talab qilinadi.

**Kalit So'zlar:** Modernizatsiya, Industrial Jamiyat, Ta'lim Jarayoni, Ta'lim Metodi, Ishlab Chiqarish, Ilm-Fan, Sifatli Ta'lim, Malakali Kadrlar, Uzluksiz Ta'lim, Ta'lim Texnologiyasi.

## MODERNIZATION IS AN IMPORTANT FACTOR FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION

**Aziza Berdieva**

Tashkent University of Applied Sciences

### ABSTRACT

Usually, in the process of modernization, machines, tools, production tools and technological processes are updated. However, due to the development of science, technology, production and technology, society also moves from a certain stage of development to a more advanced stage. Therefore, modernization is one of the important factors for improving the quality of education. Economic literacy is related to students' learning to look at the reality of the economic life of our country from the point of view of the development of society and the unity of global processes. Our transition to a market economy has led to a tremendous increase in the role of economic sciences. In turn, the teaching of these subjects must meet the needs of the times. For this, every teacher is required to approach his work creatively, work tirelessly on himself and search.

**Keywords:** *Modernization, Industrial Society, Educational Process, Educational Method, Production, Science, Quality Education, Qualified Personnel, Continuous Education, Educational Technologies.*

## IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK INNOVATSION YONDASHUV

**Baxtiyor Berdiyorov**

TMI "Iqtisodiy xavfsizlik" kafedrası

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda yoshlarga moliyaviy savodxonligini oshirishda iqtisodiy fanlarning o'rni beqiyosdir. Bu jarayonni amalga oshirishda ilm-fan, texnika va texnologiya uzviylikini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa iqtisodiy fanlarni o'qitishda pedagogik innovatsion yondashuv talab etiladi. Mamlakatimizda innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish ta'lim tizimini isloh qilish masalalari bilan bog'liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an'anaviy o'qitish turidan, talabalarni izlanishga, ma'lumotlarni o'zlari izlab topishga o'rgatadigan ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlar bilan asoslanadi. Shunga ko'ra yangi bilimlarga ehtiyoj, yangilik innovatsiya, innovatsion jarayonlar kabi tushunchalar mohiyatini anglashga ehtiyoj kuchayadi. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

**Kalit So'zlar:** *Innovatsiya, Iqtisodiy Fan, Ta'lim – Tarbiya, Pedagogik Innovatsion, Texnologiya, Iqtisodiy Bilim, Tafakkur, Novatorlik, Innovatsion Faoliyat, Ijodkorlik, Ilmiy Tadqiqot, Kommunikativ Qobiliyat.*

## PEDAGOGICAL INNOVATION APPROACH IN TEACHING ECONOMIC SCIENCES

**Bakhtiyar Berdyorov**

TMI "Economic security" department

### ABSTRACT

Today, the role of economic sciences in improving the financial literacy of young people is incomparable. It is important to ensure the integration of science, technology and technology in the implementation of this process. For this, a pedagogical innovative approach to the teaching of economic sciences is required. Studying innovations in our country, applying it to the educational process, from the traditional type of teaching based on providing ready-made information in connection with the issues of reforming the educational system, students are encouraged to search and find information on their own. It is based on actions towards the transition to the educational system. Accordingly, the need for new knowledge, the need to understand the essence of concepts such as innovation, innovation, and innovative processes will increase. Innovative activity requires the acquisition of knowledge, skills and abilities based on directing the mental, mental and physical strength of the pedagogue to a certain goal, supplementing practical activities with theoretical knowledge, developing knowledge, design, communicative speech and organizational skills.

**Keywords:** *Innovation, Economic Science, Education, Pedagogical Innovation, Technology, Economic Knowledge, Thinking, Innovation, Innovative Activity, Creativity, Scientific Research, Communicative Ability*



## TA'LIM SIFATINI KO'TARISH - DAVR TALABI

**Yangiboy Mustafaqulov**  
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

### ANNOTATSIYA

